Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 11

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№11 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-11

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Бобожонова Дилором Бобожоновa
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси

Ғоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети

Маҳкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети

Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), профессор, Наманган давлат университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Аббасов Беҳзод Бахтиёрович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат иқтисодиёт университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Diloram Babajanova
YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....5

2. Abdurasul Boltaev
TURONI ZAMINNING DAVLATChILIKDAGI TUTGAN O'RNI.....12

3. Muysin Dusaliyev
QO'QON XONLIGINING BUXORO VA XIVA BILAN HUDUDIY NIZOLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OQIBATLARI.....21

4. Кобзева О.П.
ИСТОРИЯ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ КУШАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ОТ ТОРГОВОЙ ДИПЛОМАТИИ К ДИПЛОМАТИИ «МЯГКОЙ СИЛЫ».....30

5. Ulmas Muminov
"DASHT MADANIYATI" TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....37

6. Asliddin Namazov
XX ASRNING 30-YILLARI MADANIY-MA'RIFIY MUASSASALARNING KOMFIRQA SIYOSIY-G'OYAVIY TARBIYA O'CHOQLARIGA AYLANTIRILISHI VA UNING OQIBATLARI.....42

7. Jurabek Polvonov
XIVA XONLIGI DIPLOMATIYASI VA ELCHILIK MUNOSABATLARI: TARIXIY-MANBASHUNOSLIK TAHLILI.....46

8. Soxiba Sulaymanova
G'ARBIY TURK XOQONLIGINING TASHKIL TOPISHI VA TANAZZULLI.....55

9. Rano Urazova
THE AMESHAPENTA SYSTEM IN ZOROASTRIANISM AND ITS FUNCTIONAL ESSENCE: CONCEPTS OF GOODNESS AND DIVINE ORDER.....60

10. Муродилла Ҳайдаров
Г. САФАРОВНИНГ МУСТАМЛАКА ИНҚИЛОБИ (ТУРКИСТОН ТАЖРИБАСИ) АСАРИДАН ПАРЧА.....70

11. Ғайратбек Хайдаров
ХАЛҚАРО ИНВЕСТИЦИЯ ВА ТУРИЗМ СОҲАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИ (Фарғона вилояти мисолида).....82

12. Тохир Шокиров
РАЗВИТИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ НАРОДОВ УЗБЕКИСТАНА И ЕГИПТА В ДРЕВНОСТИ.....89

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Muysin Tura o‘g‘li Dusaliyev,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Tarix" kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)
muysin454@gmail.com

QO‘QON XONLIGINING BUXORO VA XIVA BILAN HUDUDIY NIZOLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OQIBATLARI

For citation: Muysin T. Dusaliyev. CAUSES AND CONSEQUENCES OF TERRITORIAL DISPUTES BETWEEN THE KHANATE OF KOKAND AND THE STATES OF BUKHARA AND KHIVA. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 11.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.24141288

ANNOTATSIYA

Tarixda mamlakatlar o‘rtasida doimo chegara masalalari muhim hisoblangan. Shuningdek, ushbu muammoni ular goh harbiy yurishlar bilan, goh esa diplomatic yo‘l orqali hal qilingan. Shu ma'noda, O‘rta Osiyoda mavjud uch xonlik o‘rtasida ham bu kabi nizolar mavjud edi. Jumladan, maqolada strategik hududlar va suv resurslari: Zarafshon vodiysi, Sirdaryo havzasi hamda Toshkent viloyati kabi iqtisodiy jihatdan boy, dehqonchilik va savdo-sotiq rivojlangan hududlarga egalik qilish uchun intilish; siyosiy gegemonlik: mintaqada yetakchilik qilish, markazlashgan kuchli davlat barpo etish va boshqa qo‘shni davlatlar hisobiga o‘z hududlarini kengaytirish borasidagi hukmdorlarning ambitsiyalari; ko‘chmanchi qabilalar omili: chegaradosh hududlarda yashovchi turli ko‘chmanchi urug‘larning o‘tloqlar va o‘tish yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatish yo‘lidagi doimiy to‘qnashuvlari XVIII-XIX asrda uch xonlik o‘rtasidagi hududiy nizolarning kelib chiqsh sabablari sifatida manbalar orqali tahlil etildi. Shuningdek, ushbu uchta xonlik o‘rtasidagi nizolar oqibati iqtisodiy tushkunlik va vayronagarchiliklarga sabab bo‘ldi. Doimiy urushlar va harbiy yurishlar oqibatida qishloq xo‘jaligi, ayniqsa sug‘orish tarmoqlari izdan chiqqan, minglab tinch aholi jabr ko‘rgan. Savdo aloqalarining izdan chiqishi natijasida ichki va tashqi savdo yo‘llarining xavfsizligiga putur yetib, savdo karvonlarining qatnovi qiyinlashgan. Siyosiy zaiflashuv esa, o‘zaro qirg‘inbarot nizolar Markaziy Osiyo xonliklarining ichki barqarorligiga putur yetkazib, ularni tashqi kuchlar (Rossiya imperiyasi) bosqini oldida zaif holatga solib qo‘ygan. Mazkur mavzu Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixi, XIX asrdagi diplomatik munosabatlar va geosiyosiy jarayonlarni chuqur o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Jizzax, O‘ratepa.

Дусалиев Муйсин,
Шахрисабзский государственный педагогический институт
Старший преподаватель кафедры истории (PhD)
muysin454@gmail.com

ПРИЧИНЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ ТЕРРИТОРИАЛЬНЫХ СПОРОВ КОКАНДСКОГО ХАНАТА С БУХАРОЙ И ХИВОЙ

АННОТАЦИЯ

В истории вопросы границ всегда считались важными для государств, и эти проблемы решались либо военными походами, либо дипломатическим путем. В этом смысле подобные споры существовали и между тремя ханствами, существовавшими в Средней Азии. В частности, в статье на основе источников анализируются причины территориальных споров между тремя ханствами в XVIII–XIX веках: стремление овладеть экономически богатыми, развитыми в плане земледелия и торговли стратегическими регионами и водными ресурсами, такими как Зеравшанская долина, бассейн Сырдарьи и Ташкентская область; политическая гегемония – амбиции правителей установить лидерство в регионе, создать сильное централизованное государство и расширить свои территории за счет других соседних государств; фактор кочевых племен – постоянные столкновения различных кочевых родов, проживавших в приграничных районах, за установление контроля над пастбищами и путями сообщения. Также последствия споров между этими тремя ханствами привели к экономическому спаду и разрушениям. В результате постоянных войн и военных походов сельское хозяйство, особенно ирригационные сети, пришли в упадок, пострадали тысячи мирных жителей. Из-за нарушения торговых связей была подорвана безопасность внутренних и внешних торговых путей, затруднено движение торговых караванов. Политическое ослабление – взаимные кровопролитные конфликты подорвали внутреннюю стабильность среднеазиатских ханств, сделав их уязвимыми перед натиском внешних сил (Российской империи). Данная тема имеет важное значение для глубокого изучения истории государственности Средней Азии, дипломатических отношений и геополитических процессов в XIX веке.

Ключевые слова: Кокандское ханство, Бухарский эмират, Хивинское ханство, Джизак, Ура-Тюбе.

Muysin T. Dusaliyev,
Shahrisabz State Pedagogical Institute,
Senior Lecturer (PhD), Department of History
muysin454@gmail.com

CAUSES AND CONSEQUENCES OF TERRITORIAL DISPUTES BETWEEN THE KHANATE OF KOKAND AND THE STATES OF BUKHARA AND KHIVA

ABSTRACT

Throughout history, border issues have always been considered crucial for countries, and these problems were resolved either through military campaigns or diplomatic means. In this sense, similar conflicts also existed among the three khanates that existed in Central Asia. Specifically, the article analyzes the causes of territorial disputes between the three khanates in the 18th–19th centuries based on historical sources: the desire to control economically rich and agriculturally and commercially developed strategic regions and water resources, such as the Zarafshan Valley, the Syr Darya basin, and the Tashkent region; political hegemony – the ambitions of rulers to establish leadership in the region, create a strong centralized state, and expand their territories at the expense of neighboring states; the nomadic tribes factor – constant clashes among various nomadic clans living in border areas to establish control over pastures and transit routes. Furthermore, the consequences of the conflicts among these three khanates led to economic decline and devastation. As a result of constant wars and military campaigns, agriculture, especially irrigation networks, fell into disrepair, and thousands of civilians suffered. Due to the disruption of trade relations, the security of internal and external trade routes was undermined, making the movement of merchant caravans difficult. Political weakening – mutual bloody conflicts undermined the internal stability of the Central Asian khanates, leaving them vulnerable to the invasion of external forces (the

Russian Empire). This topic is of great importance for a deep study of the history of Central Asian statehood, diplomatic relations, and geopolitical processes in the 19th century.

Index Terms: Kokand Khanate, Emirate of Bukhara, Khiva Khanate, Jizzakh, Ura-Tyube.

Dolzarbligi:

XVIII asrning ikkinchi choragidan boshlab to 1876-yilgacha bo‘lgan davr mobaynida Qo‘qon xonligining tashqi siyosatidagi eng ustuvor, eng ko‘p moddiy va insoniy resurs sarflangan yo‘nalish aynan chegara hududlari ustidan nazorat o‘rnatish bo‘lgan. Elchilik almashinuvi, savdo shartnomalari, madaniy va ilmiy aloqalar ham ko‘p hollarda ayni shu masala atrofida shakllangan yoki aksincha, shu masala tufayli uzilib qolgan. Shu bois hududiy nizolarni alohida tadqiq etish, ularning kelib chiqish sabablarini tizimli tarzda aniqlash hamda oqibatlarini baholash zarurati tug‘iladi.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Qo‘qon xonligining qo‘shni Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan olib brogan hududiy-chegara nizolari, ularning geosiyosiy jihatdan sabablari hamda oqibatlarini har tomonlama xolis tahlil qilish maqsadida tarixiylik va obyektivlik, qiyosiy-tarixiy hamda manbaviy bir qator fundamental tarixiy va zamonaviy metodlar majmuasidan foydalanildi.

Masalaning tarixshunosligiga nazar tashlansa, unga bo‘lgan yondashuvlar bir-biridan keskin farq qilganini ko‘rish mumkin. Rossiya imperiyasi davri mualliflari asarlarida xonliklar o‘rtasidagi hududiy nizolar mintaqada “doimiy tartibsizlik” hukm surganligining dalili sifatida talqin qilingan va bu talqin, o‘z navbatida, imperiyaning harbiy ekspansiyasini “tinchlantiruvchi missiya” sifatida oqlashga xizmat qilgan [1]. N.Petrovskiy singari mualliflar esa nizolarni ko‘proq ma’muriy-statistik nuqtayi nazardan tavsiflab, ularning ichki mantig‘ini ochib berishga urinmagan[2]. Sovet davri tarixshunosligida bu jarayonlar “feodal tarqoqlik” va “feodal urushlari” tushunchalari doirasida, sinfiy yondashuv asosida baholanib, xonliklarning davlat sifatidagi manfaatlari, ularning strategik hisob-kitoblari e’tibordan chetda qolgan[3]. Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda masalaga o‘zbek davlatchiligi tarixi nuqtayi nazaridan yondashildi va nizolarning obyektiv sabablari qidirila boshlandi[4]. So‘nggi yillardagi xorijiy tadqiqotlarda esa Qo‘qon xonligining hududiy kengayishi mintaqaviy iqtisodiy tizimdagi o‘zgarishlar bilan bog‘lab o‘rganilmoqda[5]. Bizningcha, masalaga eng samarali yondashuv – hududiy nizolarni na “tartibsizlik”, na “feodal janjali”, balki muayyan tarixiy sharoitda shakllangan davlatlararo raqobatning qonuniy shakli sifatida, o‘sha davr chegara tuzilmalarining o‘ziga xosligini hisobga olgan holda tahlil qilishdir.

Tadqiqot natijalari:

Qo‘qon xonligining Buxoro va Xiva bilan chegara nizolari sabablarini tahlil qilish natijasida ularni beshta omilga ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: geografik-iqtisodiy, siyosiy-mafkuraviy, etnik-ijtimoiy, dinastik-ichki siyosiy hamda huquqiy-diplomatik mexanizmning yetishmasligi bilan bog‘liq sabablar. Quyida ularning har biri alohida ko‘rib chiqiladi.

Birinchi omil – geografik-iqtisodiy sabablar. Farg‘ona vodiysi tabiiy jihatdan yopiq oraliq bo‘lib, uning tashqi dunyo bilan quruqlikdagi asosiy yo‘li Sirdaryo bo‘ylab, Mahram va Xo‘jand orqali g‘arbga chiqadi. Xo‘janddan keyingi yo‘l O‘ratepa, Zomin, Jizzax orqali Samarqand va Buxoroga, undan janubga – Marv va Eronga, shimoli-g‘arbga – Xorazmga olib borgan. Ikkinchi yo‘nalish esa Toshkent orqali Dashti Qipchoqqa va Rossiya bozorlariga chiqishni ta’minlagan[6]. Demak, Xo‘jand – O‘ratepa – Zomin – Jizzax yo‘lagi Qo‘qon xonligi uchun shunchaki chegara hududi emas, balki xonlik taraqqiyotida juda muhim hisoblangan tashqi savdosining hayot tomiri edi. Ushbu yo‘lakni nazorat qilgan tomon nafaqat karvon yo‘llarining xavfsizligini, balki boj va zakot daromadlarini ham qo‘lga kiritardi. Tadqiqotning ikkinchi bobida keltirilgan ma’lumotlar – Qo‘qon – Buxoro savdo yo‘lining aynan shu shaharlar orqali o‘tgani va O‘ratepa bojxonasining katta aylanmaga ega bo‘lgani – bu fikrni bevosita tasdiqlaydi.

Iqtisodiy omilning yana bir qirrasi sug‘orish va yaylov resurslari bilan bog‘liq. Bu borada ham xonliklar o‘rtasida biror-bir kelishuv yoki masalaning yechimini beradigan mexanizm mavjud bo‘lmagan. O‘ratepa va Jizzax dehqonchiligi Sanzar va Turkiston tizmasidan oqib tushuvchi kichik daryolar suviga bog‘liq bo‘lgan. Mirzacho‘l va unga tutash yaylovlar esa ham Farg‘ona, ham

Zarafshon vohasining chorvador aholisi uchun mavsumiy ko‘chish maydoni hisoblangan. Suv taqsimoti va yaylovdan foydalanish tartibi ustidan kelib chiqadigan mahalliy nizolar ko‘pincha davlatlararo to‘qnashuvlarning bevosita bahonasi bo‘lib xizmat qilgan. Chorvador jamoalarning yozgi va qishki yaylovlari ikki davlat ta’sir doirasida joylashgani esa soliq undirish huquqi to‘g‘risidagi bahsni deyarli har yili takrorlanuvchi holatga aylantirgan.

Xonliklar o‘rtasidagi chegara nizolarini vujudga kelishiga sabab bo‘lgan ikkinchi omil bu – siyosiy-mafkuraviy sabablar edi. Minglar sulolasi Chingiziy nasabiga daxldor emasligi bois, o‘z hokimiyatining qonuniyligini boshqa asoslar bilan mustahkamlashga majbur edi. Qo‘qon tarixnavisligida shakllangan minglarning Temuriylarga, xususan, Boburga bog‘lanuvchi shajarasi ana shu ehtiyoj mahsuli edi. Olimxonning “xon” unvonini qabul qilishi, Umarxonning esa “amir ul-muslimin” maqomiga da’vo qilishi Buxoro amirlarining mintaqadagi diniy-siyosiy ustunligiga ochiq raqobat sifatida qabul qilingan[7]. Buxoro tomoni esa o‘zini ashtarxoniylar merosining qonuniy vorisi deb bilgani uchun Farg‘ona, Xo‘jand va O‘ratepani “ajralib chiqqan” hududlar sifatida ko‘rgan va ularga nisbatan da’vosini tarixiy huquq bilan asoslagan. T.Beysembiyev ta’kidlaganidek, Qo‘qon tarixnavisligining o‘zi ham ko‘p jihatdan ana shu siyosiy da’voni asoslashga qaratilgan edi[8].

Shu bois hududiy da’volar deyarli hech qachon ochiq iqtisodiy manfaat tilida ifodalanmagan. Ular “adolatni tiklash”, “isyonkorni jazolash”, “shariat hukmini joriy etish” kabi mafkuraviy shakllarda bayon qilingan. Amir Nasrulloning 1842-yilgi Qo‘qonga yurishi ham manbalarda aynan diniy-axloqiy asos bilan izohlanadi, holbuki tadqiqotchilar bu yurishning haqiqiy sabablari sifatida O‘ratepa va Xo‘jand ustidan nazoratni tiklash hamda Qo‘qonning tez kuchayib borishini to‘xtatishni ko‘rsatadilar[9]. Mafkuraviy asoslash mexanizmining mavjudligi nizolarni murosaga keltirishni ham qiyinlashtirgan: hududdan voz kechish oddiy siyosiy kelishuv emas, balki hukmdor obro‘siga putur yetkazuvchi holat sifatida qabul qilingan.

Uchinchi omil esa bu – etnik-ijtimoiy sabablar. Chegara hududlari aholisi bir urug‘ga mansub bo‘lmagan. O‘ratepa va uning atrofida yuz urug‘i vakillari, Xo‘jand va Mirzacho‘lda o‘zbek va tojik o‘troq aholisi bilan bir qatorda qipchoq, qirg‘iz jamoalari, Dashti Qipchoq yo‘nalishida qozoq urug‘lari, quyi Sirdaryoda esa qoraqalpoqlar istiqomat qilgan. Bu jamoalar ko‘p hollarda mustaqil siyosiy subyekt sifatida ish ko‘rgan va o‘z manfaatlaridan kelib chiqib bir markazdan ikkinchisiga o‘tib turgan. Mirzo Salimbekning yozishicha, Amir Haydar markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun Samarqand, Jizzax, O‘ratepa kabi chegara nuqtalariga ishonchli kishilarini hokim etib tayinlashga majbur bo‘lgan[10]. Amir Haydarning bu kabi harakatlaridan xulosa qilish mumkinki, o‘sha paytda hukumat mahalliy elitaga to‘liq ishonmaganligidan dalolat beradi.

1821 – 1825-yillardagi xitoy-qipchoqlar qo‘zg‘oloni bu jarayonning yorqin misolidir. Buxoro amirligi hududida ko‘tarilgan bu harakat mahalliy ijtimoiy ziddiyatlardan kelib chiqqan bo‘lsa-da, Qo‘qon xonligi uchun raqib davlatni ichkaridan zaiflashtirish imkoniyatini ochib bergan va tez orada davlatlararo to‘qnashuv omiliga aylangan[11]. Shunga o‘xshash tarzda, Qo‘qon xonligining shimoliy va sharqiy chegaralaridagi qirg‘iz jamoalarining noroziligi ham xonlikning tashqi mavqeyiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan[12]. Demak, chegara nizolarining muhim qismi markaziy hokimiyatlarning emas, balki chegara jamoalarining tashabbusi bilan boshlangan, markaz esa ko‘pincha voqealarga keyin qo‘shilgan.

To‘rtinchi omil esa bu dinastik va ichki siyosiy sabablar. Uch xonlikda ham taxt vorisligi tartibi qat’iy huquqiy me’yorlar bilan belgilanmagani sababli, har bir hukmdor almashinuvi ichki kurashlar bilan kechgan. Mag‘lub bo‘lgan shahzoda yoki nufuzli amaldor qo‘shni davlatdan boshpana izlagan va u yerda o‘z da’vosini tiklash uchun harbiy yordam kutgan. Bu esa ichki inqirozlarni avtomatik ravishda tashqi siyosiy muammoga aylantirgan. “Anjum at-tavorix”da keltirilgan ma’lumotlar Qo‘qon taxti uchun kurashda ishtirok etgan shaxslarning Buxoroga borib, amir madadiga tayanganini ko‘rsatadi[13]. Xuddi shu tarzda Xiva xonligi ham ayrim Qo‘qon shahzodalari uchun siyosiy boshpana vazifasini o‘tagan. Natijada har bir taxt almashinuvi chegara hududlarida yangi harbiy harakatlar to‘lqinini keltirib chiqargan.

Beshinchi omil esa huquqiy-diplomatik mexanizmning yetishmasligi. Xonliklar o‘rtasida tuzilgan sulhlar, qoida tariqasida, yozma delimitatsiya hujjati bilan emas, balki Qur’on ustida qasam ichish, o‘zaro sovg‘alar almashish va nikoh ittifoqlari bilan mustahkamlangan. Bunday kelishuvlar shaxsiy xarakterga ega bo‘lgani uchun hukmdorning vafoti bilan o‘z kuchini yo‘qotgan. Chegarani aniqlovchi xarita, chegara belgilari to‘g‘risidagi protokol yoki bahsli masalalarni ko‘ruvchi doimiy vositachilik instituti mavjud emas edi. Vositachilik vazifasini ko‘pincha nufuzli ulamo va sayyidlar bajargan, biroq ularning qarori majburiy huquqiy kuchga ega bo‘lmagan. Shu sababli har bir yangi hukmdor o‘zidan oldingi kelishuvni qayta ko‘rib chiqishga haqli deb hisoblagan va bu hol nizolarning tugamasligiga olib kelgan.

Sabablar tahlilini yakunlar ekanmiz, chegara nizolarining kechish mexanizmiga ham e’tibor qaratish lozim. Manbalardagi ma’lumotlarni qiyosiy o‘rganish natijasida ularning takrorlanuvchi qolipi aniqlanadi. Odatda jarayon quyidagi bosqichlarda kechgan: dastlab chegara jamoasi yoki mahalliy hokim sadoqatini o‘zgartiradi yoxud soliq to‘lashdan bosh tortadi; so‘ngra raqib tomon bunga “isyonchini jazolash” yoki “o‘z fuqarosini himoya qilish” bahonasida javob qaytaradi; keyin qo‘shin yurishi va bahsli qal’aning qamali boshlanadi; qamal, qoida tariqasida, uzoq davom etmay, ulamo yoki nufuzli shaxslar vositachiligida sulh tuziladi; sulh esa mahalliy hokimning tasdiqlanishi va soliq majburiyatining qayta belgilanishi bilan yakun topadi. Muhimi shundaki, bu qolipda hududning to‘liq va uzil-kesil qo‘shib olinishi kamdan-kam uchraydi – tomonlar ko‘pincha bir-birining kuchini sinab ko‘rish va mavjud muvozanatni o‘z foydasiga biroz siljitish bilan cheklanganlar.

Yuqoridagi sabablar ta’sirida mintaqada bir necha barqaror nizo o‘choqlari shakllandi. Ulardan birinchisi va eng keskini – Xo‘jand – O‘ratepa – Zomin – Jizzax yo‘nalishi. Bu hudud XVIII asrning birinchi choragidayoq kurash maydoniga aylangan: manbalarga ko‘ra, 1725-yilda Xo‘jand, 1726-yilda O‘ratepa Qo‘qon hukmdorlari tomonidan egallangan, biroq keyingi o‘n yilliklarda ular qayta-qayta qo‘ldan-qo‘lga o‘tgan. XIX asrda bu jarayon yanada jadallashdi. Olimxon davrida (1801 – 1810) O‘ratepa uchun bir necha yurish uyushtirildi; Amir Haydar bilan Toshkent, O‘ratepa, Jizzax va Zomin uchun shiddatli janglar bo‘lib o‘tdi. Umarxon davrida Jizzax qamal qilindi, Amir Nasrullo davrida esa O‘ratepa bir necha bor Buxoro tasarrufiga qaytarildi. 1858 – 1862-yillarda Mallabek O‘ratepa va Jizzaxni qaytarish maqsadida yurish qildi, 1859-yil bahorida Nasrullo qarshi yurish uyushtirdi, 1860-yilda Abdulg‘afforbek O‘ratepani qaytadan egalladi. Tojikistonlik tadqiqotchi J.Abdukarimovaning hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘ratepa hokimiyati XVIII asr – XIX asrning 40-yillari oralig‘ida yigirma martadan ko‘proq almashgan [14].

Bu raqamning o‘zi hududiy nizoning xarakterini yaqqol ko‘rsatadi: gap bir marta bosib olish va uzoq muddatli qo‘shib olish haqida emas, balki muvozanat holatidagi doimiy kurash haqida bormoqda. Har ikki tomon ham bu hududni to‘liq va uzoq muddat ushlab turishga qodir emas edi. Buxoro uchun O‘ratepa – Zarafshon vohasining sharqiy qalqoni, Qo‘qon uchun esa g‘arbga chiqish darvozasi bo‘lgani uchun undan voz kechish har ikkala tomon uchun ham strategik jihatdan qabul qilib bo‘lmas edi. Natijada hudud yarim asrdan ortiq vaqt davomida doimiy harbiy zonaga aylandi.

Ikkinchi nizo o‘chog‘i – Toshkent, Turkiston, Chimkent va quyi Sirdaryo yo‘nalishi. Bu yerda Qo‘qon xonligining raqiblari faqat Buxoro emas, balki qisman Xiva ham bo‘lgan. Umarxon 1815-yilda Turkistonga yurish qildi va bu yurishning asosiy sababi Rossiyaga boradigan savdo yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatish edi[15,]. Shundan so‘ng Sirdaryo etaklarida Oqmachit qal’asi bunyod etilib, Qo‘shqo‘rg‘on, Chimqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on kabi istehkomlar tizimi shakllantirildi. Bu qal’alar bir vaqtning o‘zida harbiy tayanch nuqtasi, boj yig‘ish punkti va savdo markazi vazifasini bajargan. P.Ivanov va R.Beknazarovlarning tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, qozoq urug‘laridan zakot undirish huquqi uchun kurash aynan shu davrda Qo‘qon xonligi bilan qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi asosiy bahs mavzularidan biriga aylangan [16].

Quyi Sirdaryo va Orol bo‘yida esa Qo‘qon xonligining manfaatlari Xiva xonligining manfaatlari bilan kesishgan. Qoraqalpoq va ayrim qozoq urug‘lari ustidan homiylik masalasi ikki xonlik uchun ham nozik mavzu bo‘lgan. Biroq shuni alohida ta’kidlash lozimki, biroq bu boradagi manfaat hech qachon keng ko‘lamli urushga aylanmagan [17]. Buning bir qancha sabablari bor edi: birinchidan, ikki xonlik markazlarining bir-biridan geografik jihatdan uzoqligi va oralarida Buxoro

amirligi hamda Qizilqum kabi tabiiy to‘siqlarning mavjudligi bo‘lsa, ikkinchidan, har ikki tomon uchun Buxoroning umumiy raqib sifatida ko‘rilishi edi. Uchinchidan, ikki xonlik o‘rtasidagi savdo aloqalari asosan Buxoro orqali amalga oshirilgani sababli bevosita iqtisodiy raqobat ham keskin bo‘lmagan.

Uchinchi nizo o‘chog‘i – janubiy, ya’ni Ko‘histon yo‘nalishi: Ko‘lob, Hisor, Qorategin, Darvoz va Maschoh viloyatlari. “Tarixi Turkiston” ma’lumotlariga ko‘ra, Umarxon davrida Qo‘qon davlatining chegarasi janubda Ko‘histon, Ko‘lob, Hisor va Shahrisabzgacha yetgan, Muhammad Alixon davrida (1822 – 1842) esa Ko‘lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz va Maschoh Qo‘qon hukumatini tan olgan[18]. Biroq bu tan olish, qoida tariqasida, to‘liq qo‘shib olishni emas, balki soliq to‘lash va harbiy yordam berish majburiyatini bildirgan. Ushbu tog‘li bekliklar ko‘pincha bir vaqtning o‘zida ham Qo‘qonga, ham Buxoroga soliq to‘lagan – bu holat manbalarda “qo‘sh tobelik” tarzida namoyon bo‘ladi va bu holat o‘sha davr chegara munosabatlarining eng xarakterli belgilaridan biridir. Markaz zaiflashishi bilan bu bekliklar darhol mustaqillikka intilgan, kuchaygan paytda esa qayta bo‘ysundirilgan.

Xonliklar o‘rtasidagi chegara nizolarining moddiy izlari sifatida qal’a va istehkomlar tizimini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Qo‘qon xonligining g‘arbiy chegarasida Mahram va Nov qal’alari, shimoli-g‘arbda Toshkent va uning atrofidagi istehkomlar, shimolda esa Oqmachit, Yangiqo‘rg‘on, Chimqo‘rg‘on va Qo‘shqo‘rg‘on kabi tayanch nuqtalari joylashgan edi. Bu qal’alar qo‘rg‘onbegi boshchiligida boshqarilib, ularda doimiy sipoh, qurol-yarog‘ va oziq-ovqat zaxirasi saqlangan. Qal’alar orasidagi masofada qorovulxonalar joylashtirilib, karvon yo‘llari va o‘tish joylari kuzatib turilgan. Ushbu tizim bir vaqtning o‘zida uch vazifani – mudofaa, boj yig‘ish va ma’muriy nazorat vazifasini bajargan. Ayni paytda uning saqlanishi davlat xazinasi uchun og‘ir yuk bo‘lgan va xonlikning moliyaviy imkoniyatlari cheklanganda birinchi navbatda aynan chegara garnizonlari ta’minotida uzilishlar yuz bergan.

Endi yuqorida ta’kidlab o‘tilgan hududiy nizolarning oqibatlariga to‘xtalib o‘tsak. Birinchi navbatda bu kabi nizolar chegara hududlarining harbiylashuviga sabab bo‘ldi. Ikkala tomon ham bahsli yo‘nalishlarda qal’alar tizimini barpo etib, ularda doimiy garnizonlar saqlashga majbur bo‘ldi. Mahram, Nov, O‘ratepa, Jizzax, Zomin qal’alari ana shunday istehkomlar edi. Doimiy qo‘shin saqlash, qal’alarni ta’mirlash, oziq-ovqat va qurol-yarog‘ zaxiralarini to‘ldirish davlat xarajatlarining sezilarli qismini yutgan. Bu esa, o‘z navbatida, soliq yukining oshishiga va aholi noroziligining kuchayishiga olib kelgan. Buxoro amiri Nasrulloning Xorazm chegaralaridagi qal’alarni katta zaxira va sipoh bilan ta’minlay boshlagani haqidagi ma’lumot ham xuddi shu mantiqning ifodasidir [13].

Ikkinchi navbatda esa, albatta, mamlakat taraqqiyotiga savdo-iqtisodiy tomondan juda katta zarar keltirdi. Karvon yo‘llarining bahsli hududlardan o‘tishi savdo xavfsizligini doimiy tahdid ostida qoldirgan. Jang mavsumida yo‘llar butunlay yopilgan, savdogarlar esa uzoqroq va qimmatroq yo‘nalishlarni tanlashga majbur bo‘lgan. Bundan tashqari, bir hududning tez-tez qo‘ldan-qo‘lga o‘tishi bojxona tizimida muvozanatning buzilishiga sabab bo‘lgan. Natijada, savdogarlar bir yo‘lning o‘zida ikki marta boj to‘lash holatiga tushib qolgan. N.Xanikov va Y.Meyendorf singari mualliflar mintaqa savdosini tavsiflar ekan, ayni shu beqarorlikni tranzit savdoning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omil sifatida ko‘rsatadilar[19]. Uzoq muddatli istiqbolda bu hol Qo‘qon savdogarlarining diqqatini shimolga – Rossiya bozorlariga qaratdi, bu esa keyinchalik siyosiy oqibatlarga ham ega bo‘ldi.

Uchinchidan bu kabi nizolar demografik va ijtimoiy talafotlarni keltirib chiqardi. Harbiy harakatlar davomida chegara qishloqlari vayron etilgan, ekin maydonlari toptalgan, sug‘orish inshootlari buzilgan. Manbalarda aholini majburan ko‘chirish holatlari ham qayd etilgan: “Muntaxab ut-tavorix”da Umarxon Jizzax qal’asini qamal qilib turgan vaqtda Buxoro viloyatidan o‘n ikki ming oilani ko‘chirib, Xorazmga yuborganligi haqida ma’lumot keltiriladi[20]. Bunday ko‘chirishlar nafaqat insoniy fojia, balki raqib davlatning soliq bazasi va harbiy salohiyatining inqiroziga qaratilgan ongli strategik hujum ham edi. Aholining chegara hududlaridan ichki viloyatlarga ko‘chib ketishi natijasida O‘ratepa va Jizzax kabi ilgari gullab-yashnagan shaharlarning iqtisodiy salohiyati sezilarli darajada pasaydi.

To‘rtinchidan ichki siyosiy beqarorlikning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Uzluksiz urushlar harbiy elitaning – mingboshi, amirlashkar, otaliq kabi mansabdorlarning siyosiy vaznini oshirib yubordi. Qo‘shin va uning qo‘mondonlariga bo‘lgan bog‘liqlik hukmdorlarni ular oldida ojiz holatga tushirdi. XIX asrning 40 – 60-yillarida Qo‘qon xonligida ro‘y bergan saroy to‘ntarishlari, qipchoq guruhining hokimiyatga ta’siri va undan keyingi qonli hisob-kitoblar bevosita shu jarayonning natijasi edi. Urush xarajatlarini qoplash uchun joriy etilgan yangi soliqlar esa xalq harakatlarining kelib chiqishiga zamin yaratdi[4]. Shu tariqa tashqi hududiy nizolar ichki inqirozni kuchaytirgan, ichki inqiroz esa tashqi mavqeni yanada zaiflashtirgan – bu ikki jarayon o‘zaro yopiq halqa hosil qilgan.

Beshinchidan birmuncha kutilmagan, ammo tarixiy jihatdan muhim natija: bahsli hududlarning o‘ziga xos madaniy kontakt zonasiga aylanishi. Xo‘jand, O‘ratepa va Jizzax aholisi ikki davlat madaniy makonining chegarasida yashagani uchun bu shaharlarda ikki tomonlama ta’sir kuchli bo‘lgan. Urushlar oralig‘idagi tinch davrlarda bu yerda savdo, hunarmandchilik, ilm-ma’rifat almashinuvi jadal kechgan. Asirlarni almashish, qochoqlarni qaytarish, karvonlarni himoya qilish masalalari bo‘yicha muzokaralar olib borish esa xonliklar diplomatiyasining amaliy tajribasini boyitgan. Aynan chegara masalalari bo‘yicha yozishmalar bugungi kunda ikki davlat munosabatlari tarixini o‘rganish uchun eng qimmatli manbalar sirasiga kiradi[21].

Oltinchidan, eng jiddiysi – mintaqaviy xavfsizlik tizimining shakllanmay qolishi. XIX asrning 50 – 60-yillarida Rossiya imperiyasining harbiy ilgarilashi boshlangan paytda uch xonlik o‘zaro ishonchsizlik holatida edi. 1853-yilda Oqmachitning qo‘ldan ketishi, 1864-yilda Turkiston va Chimkentning, 1865-yilda esa Toshkentning egallanishi jarayonida xonliklar birlashgan qarshilik ko‘rsata olmadilar[22]. Buning ustiga, Qo‘qon xonligi og‘ir ahvolga tushgan paytda Buxoro amiri Muzaffar o‘z manfaatlarini ko‘zlab harakat qildi, Qo‘qon esa amirlikka qarshi yillar davomida to‘plangan ishonchsizlikni yenga olmadi. Eng achinarlisi, yarim asrdan ortiq vaqt davomida ikki xonlik o‘rtasida talashib kelingan Jizzax va O‘ratepa 1866-yilda uchinchi kuch – Rossiya imperiyasi qo‘liga o‘tdi. Bu holat hududiy nizolarning pirovard natijada har ikkala tomon uchun ham mag‘lubiyat bilan yakunlanganini ko‘rsatadi.

Xiva xonligi bilan bo‘lgan munosabatlar bu manzarada alohida o‘rin tutadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, Qo‘qon va Xiva o‘rtasida hududiy da’volar keskin tus olmagan. Buning asosiy sababi ikki davlat manfaatlarining bevosita to‘qnashmagani bo‘lsa, ikkinchi sababi – Buxoroga qarshi umumiy pozitsiyaning mavjudligi edi. 1821-yilda tuzilgan harbiy ittifoq va undan keyingi elchilik almashinuvlari bu yaqinlashuvning yorqin ifodasi bo‘ldi[23]. Munis va Ogahiy asarlarida keltirilgan ma’lumotlar Xiva xonlarining Buxoro amirlari bilan munosabatlaridagi keskinlik aynan Qo‘qon bilan yaqinlashuvga turtki bo‘lganini ko‘rsatadi[24]. N.Allayeva ta’kidlaganidek, Xiva diplomatiyasi uchun Qo‘qon yo‘nalishi mintaqadagi kuchlar muvozanatini saqlash vositasi edi[25]. Qo‘qonshunos olimlardan T.D.Xudayqulov ushbu nizolarning sababini shunday keltiradi: Xonliklar o‘rtasidagi hududiy nizolarning bosh sababi — unumdor yerlar, sug‘orish tarmoqlari va strategik savdo yo‘llarini nazorat qilishga bo‘lgan intilish hamda markaziy hokimiyatlarning o‘zaro siyosiy raqobati edi. Bu to‘xtovsiz urushlar oqibatida mamlakat iqtisodiy inqirozga yuz tutdi, xalq boshiga cheksiz kulfatlar tushdi va eng asosiysi, xonliklarning parokandaligi va harbiy jihatdan zaiflashuvi butun mintaqaning Rossiya imperiyasi tomonidan osongina bosib olinishiga zamin yaratdi[26].

Shu bilan birga, bu holatni ideallashtirmaslik lozim. Xiva – Qo‘qon munosabatlarida ham yashirin raqobat elementlari mavjud bo‘lgan: quyi Sirdaryo va Orol bo‘yidagi ko‘chmanchi jamoalar ustidan ta’sir o‘tkazish, Qizilqum orqali o‘tuvchi karvon yo‘lining xavfsizligini ta’minlash va Eron hamda Usmonlilar davlati bilan aloqalarda vositachilik maqomini saqlab qolish masalalari ikki tomon uchun ham muhim edi. Biroq bu raqobat harbiy shaklga kirmagani uchun tarixiy adabiyotda ko‘pincha e’tibordan chetda qolgan. Bizningcha, aynan shu jihat – hududiy manfaatlari to‘qnashmagan ikki davlat o‘rtasida barqaror ittifoq shakllanishi mumkinligi – uch xonlik munosabatlari tarixidan chiqarilishi lozim bo‘lgan muhim xulosalardan biridir.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon xonligining Buxoro va Xiva bilan chegara hamda hududiy nizolari tasodifiy yoki faqat hukmdorlarning shaxsiy da’vosidan kelib chiqqan hodisa emas, balki

mintaqadagi geografik, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar majmuidan tug‘ilgan tizimli jarayon bo‘lgan. Bu nizolarning asosiy manbasi Farg‘ona vodiysining tashqi dunyoga chiqish yo‘llari ustidan nazorat masalasi bo‘lib, unga sulolaviy qonuniylik uchun kurash, chegara jamoalarining mustaqil siyosati hamda chegarani huquqiy jihatdan mustahkamlovchi mexanizmning yo‘qligi qo‘shilgan.

Nizolarning oqibatlari esa har ikkala tomon uchun ham salbiy bo‘ldi: chegara hududlari harbiylashdi, savdo yo‘llarining xavfsizligi buzildi, aholi ko‘chirildi va qirildi, davlat xarajatlari oshib, ichki beqarorlik kuchaydi. Eng muhimi, uzluksiz raqobat mintaqada yagona xavfsizlik tizimi shakllanishiga imkon bermadi va bu hol XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining ilgarilashiga qarshi samarali qarshilik ko‘rsatilmasligining muhim sabablaridan biriga aylandi. Ayni paytda hududiy nizolar tarixi bugungi kun uchun ham amaliy ahamiyatga ega: u qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi bahsli masalalarni harbiy emas, huquqiy va diplomatik yo‘l bilan hal qilish zaruratini tarixiy tajriba orqali ko‘rsatib beradi.

Iqtiboslar / Сноски / References:

1.Терентьев М. История завоевания Средней Азии с картами и планами. Т. I. – СПб.: Невский, 1906. – 268 с. (Terentyev M. Istoriya zavoyevaniya Sredney Azii s kartami i planami. T. I. – SPb.: Nevskiy, 1906. – 268 s.)

2. Петровский Н. Очерки Кокандского ханства // Вестник Европы. Год 10. Кн. 10. – СПб., 1875. – С. 722–757. (Petrovskiy N. Ocherki Kokandskogo xanstva // Vestnik Yevropi. God 10. Kn. 10. – SPb., 1875. – S. 722–757.)

3. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (феодальное хозяйство Худаяр-хана). – Ташкент: Фан, 1973. – 388 с.; Ўзбекистон ССР тарихи. II т. – Тошкент, 1957. – 264 б. (Nabiyev R. Iz istorii Kokandskogo xanstva (feodalnoye xozyaystvo Xudayar-xana). – Tashkent: Fan, 1973. – 388 s.; O‘zbekiston SSR tarixi. II t. – Toshkent, 1957. – 264 b.)

4. Бобобеков Ҳ. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – 240 б. (Bobobekov H. Qo‘qon tarixi. – Toshkent: Fan, 1996. – 240 b.)

5. Scott C. Levi. The Rise and Fall of Khoqand 1709 – 1876. – University of Pittsburgh Press, 2017. – 258 p. (Scott C. Levi. The Rise and Fall of Khoqand 1709 – 1876. – University of Pittsburgh Press, 2017. – 258 p.)

6. Мадраҳимов З. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи. – Тошкент: Янги нашр, 2014. – Б.67. (Madrahimov Z. Qo‘qon xonligida savdo munosabatlari tarixi. – Toshkent: Yangi nashr, 2014. – B.67.)

7. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. – Токио – Ташкент. – С.164-165. (Babadjanov B.M. Kokandskoye xanstvo: vlast, politika, religiya. – Tokio – Tashkent. – S.164-165.)

8. Бейсенбиев Т. Кокандская историография: исследование по источниковедению Средней Азии XVIII – XIX веков. – Алматы, 2009. – С. 13. (Beysenbiyev T. Kokandskaya istoriografiya: issledovaniye po istochnikovedeniyu Sredney Azii XVIII – XIX vekov. – Almati, 2009. – S. 13.)

9. Исҳоқхон тўра Ибрат. Тарихи Фарғона / Нашрга тайёрловчилар У.Долимов, Н.Жабборов. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б.42-43. (Ishoqxon to‘ra Ibrat. Tarixi Farg‘ona / Nashrga tayyorlovchilar U.Dolimov, N.Jabborov. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005. – B.42-43.)

10. Мирзо Салимбек. Таворихи муттақаддимин ва муттаахирин / Форс-тожик тилидан Н.Йўлдошев таржимаси. – Бухоро, 2003. – Б. 292–297. (Mirzo Salimbek. Tavorixi muttaqaddimin va muttaaxirin / Fors-tojik tilidan N.Yo‘ldoshev tarjimasi. – Buxoro, 2003. – B. 292–297.)

11. Иванов П. Восстание Китай-кипчаков в Бухарском ханстве 1821 – 1825 гг.: Источники и опыт их исследования. – Москва, 1937. – С.63. (Ivanov P. Vosstaniye Kitay-kipchakov v Buxarskom xanstve 1821 – 1825 gg.: Istochniki i opit ix issledovaniya. – Moskva, 1937. – S.63.)

12. Хасанов А. Народные движения в Киргизии в период Кокандского ханства. – Москва, 1977. – С.34-36. (Xasanov A. Narodniye dvijeniya v Kirgizii v period Kokandskogo xanstva. – Moskva, 1977. – S.34-36.)

13. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих / Таржимон Ш.Воҳидов. – Тошкент: Фан ва технология, 2014. – Б.112. (Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix / Tarjimon Sh.Vohidov. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – B.112.)

14. Абдукаримова Ж. Политическое положение Ура-тюбинского владения и Худжанда в XVIII – 40-х гг. XIX в. По материалам «Мунтахаб ат-таворих» Мухаммада Хакимхана. Дисс. ... канд. ист. наук. – Душанбе, 2020. – 191 С.74. (Abdukarimova J. Politicheskoye polojeniye Ura-tyubinskogo vladeniya i Xudjanda v XVIII – 40-x gg. XIX v. Po materialam «Muntaxab at-tavorix» Muxammada Xakimxana. Diss. ... kand. ist. nauk. – Dushanbe, 2020. – 191 S.74.)

15. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2012. – Б. 312. (Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 312.)

16. Бекмаханов Р.К. К истории взаимоотношений казахов со среднеазиатскими ханствами // Большевик Казахстана. – Алма-Ата, 1947. – № 3. – С. 5–10. (Bekmaxanov R.K. K istorii vzaimootnosheniy kazaxov so sredneaziatskimi xanstvami // Bolshevik Kazaxstana. – Alma-Ata, 1947. – № 3. – S. 5–10.)

17. Бекназаров Р. Юг Казахстана в составе Кокандского ханства и его присоединение к России. – Алма-Ата, 1969. – С.11-12. (Beknazarov R. Yug Kazaxstana v sostave Kokandskogo xanstva i yego prisoyedineniye k Rossii. – Alma-Ata, 1969. – S.11-12.)

18. Мирзо Олим Маҳдум ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б.113-114. (Mirzo Olim Mahdum hoji. Tarixi Turkiston. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – B.113-114.)

19. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – 279 с. (Xanikov N. Opisaniye Buxarskogo xanstva. – SPb., 1843. – 279 s.)

20. Муҳаммад Ҳакимхон тўра. Мунтахаб ут-таворих / Форс-тожик тилидан таржимон, муқаддима, изоҳлар муаллифи Ш.Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 175–176. (Muhammad Hakimxon to‘ra. Muntaxab ut-tavorix / Fors-tojik tilidan tarjimon, muqaddima, izohlar muallifi Sh.Vohidov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 175–176.)

21. Ўзбекистон Миллий архиви, И–125-фонд, 240-рўйхат, 3-варақ. (O‘zbekiston Milliy arxivi, I–125-fond, 240-ro‘yxat, 3-varaq)

22. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор мустамлакачилиги даврида / Тузувчилар: Ҳ. Содиқов, Р. Шамсутдинов, П. Равшанов ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.56-58. (O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor mustamlakachiligi davrida / Tuzuvchilar: H. Sodiqov, R. Shamsutdinov, P. Ravshanov va boshq. – Toshkent: Sharq, 2000. – B.56-58)

23. Полвонов Н., Шерипов У. Қўқон ва Хива хонликларининг ўзаро элчилик алоқалари тарихига доир (XIX аср) // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – 1/2019. – Б. 55–60. (Polvonov N., Sheripov U. Qo‘qon va Xiva xonliklarining o‘zaro elchilik aloqalari tarixiga doir (XIX asr) // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – 1/2019. – B. 55–60.)

24. Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол (Бахту саодат жаннати) / Таржимон: Ш.Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 449. (Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol (Baxtu saodat jannati) / Tarjimon: Sh.Vohidov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – B. 449.)

25. Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари (XVI – XIX асрлар). – Тошкент: Академнашр, 2019. – Б. 180–185. (Allayeva N. Xiva xonligining diplomatiyasi va savdo aloqalari (XVI – XIX asrlar). – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B. 180–185.)

26.Худайқулов Т.Д. XIX асрда Қўқон хонлиги (Ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти). – Тошкент: Тафаккур, 2010. – Б. 74. (Xudayqulov T.D. XIX asrda Qo‘qon xonligi (Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti). – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B. 74)

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000